

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924)	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar)	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE)	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA)	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASSTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejaveliyevna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUHOJIRAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyeva Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILIIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTEBLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Абдуллаева Дилдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTEBLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**Received:** 15 April 2025**Accepted:** 1 May 2025**Published:** 10 May 2025*Article / Original Paper***FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS: EXPORT-ORIENTED DEVELOPMENT****Urdushev Khamrakul**

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Eshankulov Sirojiddin

teacher, independent researcher

Samarkand State University of Veterinary Medicine,

Animal Husbandry and Biotechnologies

Abstract. The article analyzes the export indicators of fruit and vegetable products produced in Uzbekistan. The article also discusses the advantages of the cluster system implemented in the industry.

Keywords: fruits and vegetables, GDP, export, fruit and vegetable market, infrastructure, cluster, cooperation, competitiveness, investment, technologies, problems, solutions.

**MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:
EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN RIVOJLANISH****Urdushev Xamrakul**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: x.urdushev@gmail.com**Eshanqulov Sirojiddin**

o‘qituvchi, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: eshonqulov8202@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan meva-sabzavot mahsulotlarining eksport ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada sohaga joriy qilingan klaster tizimining afzalliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: meva-sabzavot, YaIM, eksport, meva-sabzavot bozori, infratuzilma, klaster, kooperatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N16>

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston uchun mamlakat va uning hududlarining iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish masalasi dolzarbdir. Mintaqa miqyosida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda uning rivojlanishining klaster modelini yaratish muhim jihat hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi iqtisodiyotda klaster tizimining joriy etilishini samarali mexanizm ekanligini tasdiqlaydi [4,5,6]. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi qishloq xo‘jalik klasterlari hamkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirish va zamonaviy texnologiyalarini joriy etishning eng samarali vositalardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Klasterlarning xususiyatlari va ularda yuzaga keladigan sinergetik effektlar tufayli klasterning har bir ishtirokchisi va klasterning o‘zi, shuningdek, klaster joylashgan

hududning raqobatbardoshligi oshib, bu o'z navbatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi [10,16].

Shuni ta'kidlash joizki, yirik iqtisodiy tizimni tashkil etishning eng maqbul shakli klaster yondashuvi hisoblanadi. Klaster ishlab chiqarish va iste'mol kompleksi bo'lib, unda ishlab chiqarish, logistika, iste'mol, qayta ishlash va boshqa bo'g'inlar mavjud. Ularning barchasi cheklangan hududda joylashgan bo'lib, ularni klaster deb hisoblash mumkin. Qishloq xo'jaligi sohasiga kelsak, bu yerda klaster ishlab chiqarish, qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishni o'z ichiga olgan kompleksdir. Jarayon ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik yuzaga keladi, bu esa klasterning o'zi va sohaning umumiy barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. 2017 yilda O'zbekistonda 2 ta qishloq xo'jaligi klasteri faoliyat ko'rsatishni boshlagan bo'lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 662 taga yetdi. Bugungi kunda mamlakatda 146 ta paxta-to'qimachilik, 126 ta g'allachilik, 136 ta meva-sabzavotchilik va 254 ta boshqa yo'nalishdagi (jumladan, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va hokazo) klasterlar samarali faoliyat yuritmoqda. 2024 yilda mamlakatimizda klasterlar tomonidan 225,7 million dollar investitsiya jalb qilinib, 143 ta loyiha amalga oshirildi. Natijada, paxtachilikda 91 foizdan 96 foizga, g'allachilikda 48 foizdan 57 foizga, meva-sabzavotchilikda 50 foizdan 55 foizgacha mahsulotni qayta ishlash darajasi oshdi. Shuningdek, 15,2 ming ish o'rni yaratildi (Klaster.uz).

“O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmoqlarida shakllantirilgan klasterlar kutilgan samaradorlikka erishdimi?” degan mazmundagi savollar yuzaga keladi. Yoki hozirgi vaqtda faoliyat ko'rsatayotgan klasterlarni qishloq xo'jaligining rivojlangan tizimi deb hisoblash mumkinmi? Bu savollarning yuzaga kelishiga ko'plab omillar sabab bo'ladi. Masalan, hozirgi davrda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi klasterlarda fermerlarning yakuniy tayyor mahsulotlarni sotishdan olinadigan mablag'lardan manfaatdorligi yetarli darajada emasligi bunga misol bo'lishi mumkin

Tabiiyki, klaster shaklida xo'jalik yuritish tizimi fermerlar, tomorqa xo'jaliklari va dehqonlar uchun foydalidir, masalan, klasterlar fermerlarga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalari, grantlar va boshqa turdagi yordamlardan foydalanish imkonini beradi.

2024-yilda Statistika agentligi O'zbekistonning YaIM hajmi 2023-yilda AQSh dollari ekvivalentida 101,6 milliard dollarga yetganini e'lon qildi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi joriy narxlarda 1 454 573,9 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 6,5 foizga o'sishga erishildi [20]. Shu bilan birga, meva-sabzavotchilik va uzumchilik mamlakat qishloq xo'jaligida yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini eksport qilishni oshirish orqali xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashga harakat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan ochiq ma'lumotlarida taqdim etilgan 2020-2024-yillardagi iqtisodiy ma'lumotlardan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi usullar qo'llanildi:

- Statistik tahlil: O'zbekistonning YaIM, eksport hajmi va meva-sabzavot mahsulotlari eksportidagi o'zgarishlarni tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlardan foydalanildi.
- Tendensiyalarni aniqlash: O'zbekistonning eksport salohiyati va meva-sabzavotchilik tarmog'idagi o'zgarishlarni aniqlash uchun tendensiyalarni kuzatish va tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Shuningdek tadqiqot induksiya va deduksiya, statistik va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash kabi usullarini qamrab oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Klaster konsepsiyasi M. Porterning “Raqobat” asarida tasniflangan bo‘lib, unda muallif klasterlarni geografik jihatdan bir bir-biriga yaqin joylashgan, o‘zaro bog‘langan kompaniyalar, ixtisoslashtirilgan yetkazib beruvchilar, shuningdek xizmat ko‘rsatuvchilar, firmalar va ularning faoliyati bilan bog‘liq tashkilotlar (masalan, ilmiy tashkilotlar, savdo birlashmalari) guruhi sifatida belgilaydi, klasterlar ma‘lum sohalarda raqobatlashadilar va shu bilan birga hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadilar [14].

Klaster mexanizmining aniq afzalliklari haqida gapirganda, M. Porter uning ishlab chiqarishni ko‘paytirish, xarajatlarni optimallashtirish, eksportni oshirish, shuningdek xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam berishini ta‘kidlaydi. Hozirgi kunda klasterlarni shakllantirish, takomillashtirish va faoliyat yuritish masalalari bilan ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar, jumladan Ye. Daxmen, I. Tolenado, D. Sole, Ye. Limer, R. Vayber va boshqalar shug‘ullanmoqda. Ularning tadqiqotlarida mamlakat, iqtisodiyot, tarmoq, mintaq va hududning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab klasterlarni yaratish va raqobatbardoshligini oshirish oid ko‘plab dolzarb masalalar aks etgan. MDH davlatlarida, masalan, Rossiyada mamlakat sharoitiga moslashtirilgan holda klasterlarni tadqiq qilish bilan A. Migranyan, T. Sixan, M. Afanasev, V. Tretyak, L. Markov va boshqa olimlar shug‘ullanadi.

O‘rganishlar, klaster nazariyasi va amaliyoti masalalari ko‘plab rossiyalik iqtisodchilarning muhim tadqiqot predmetlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, ko‘plab ilmiy va monografik tadqiqotlarida “iqtisodiy klasterlarning tushunchalari va muhim jihatlari” va “iqtisodiyotda klasterli yondashuvning nazariy-metodologik asoslari”ga oid fikrlar atroflicha yoritilgan [18]. Klasterni obyekt sifatida o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, klasterlar bilan bir qatorda shunga o‘xshash ko‘plab nazariyalar mavjud bo‘lib, ularga nisbatan klasterlar odatda umumlashtiruvchi tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, klasterlar bir yoki bir nechta tarmoqlarning o‘zaro bog‘liq korxonalarining geografik konsentratsiyasi bo‘lib, ular raqobatlashadi, ammo shu bilan birga bir-biri bilan hamkorlik qiladi, o‘ziga xos mahalliy aktivlardan foyda ko‘radi, birgalikda joylashadi va ijtimoiy integratsiyalashadi [19]. O‘rganishlar, mohiyatan “klaster” tushunchasi ko‘p ma‘noga ega va uning yagona talqini mavjud emasligini ko‘rsatadi [13]. U kategoriya sifatida qo‘llanish sohalariga ko‘ra turlicha talqin etiladi, biroq klasterning asosiy mohiyati muayyan funksiyalarni bajarish uchun ayrim elementlarni bir butun (zanjir)ga birlashtirish degan ma‘noda ishlatiladi.

M. Porter “Clusters and The New Economics of Competition” asarida Kaliforniya vinochilik klasteri ishtirokchilarini uchta darajaga bo‘lib tasniflaydi: klaster yadrosi, aralash kompaniyalar va iqtisodiy infratuzilma [4]. Ayrim tadqiqotlarda meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari uchta darajaga ajratiladi: “asosiy kompaniyalar”, “turdosh xo‘jalik faoliyatini yurituvchi kompaniyalar” va “iqtisodiy faoliyat turlariga xizmat ko‘rsatadigan kompaniyalar (iqtisodiy infratuzilmalar)” [12]. Ko‘plab tadqiqotlarda innovatsion agroklasterni aniqlash Porter metodologiyasiga asoslanadi, hududiy oziq-ovqat agroklasterni tarkibini “klaster yadrosi”, “qo‘shimcha obyektlar”, “xizmat ko‘rsatish obyektlari” va “yordamchi obyektlar”ga ajratiladi [1]. “Agroklasterni innovatsiya” tashkiliy – xo‘jalik yurituvchi o‘zaro bog‘langan kompaniyalarning yangi shakli bo‘lib, o‘zining raqobatli ustunliklariga hamkorlik munosabatlari orqali erishadi, qishloq xo‘jalik hududlarida aholining sifatli turmush tarzini ta‘minlash amaliy faoliyatlarda qo‘llaniladigan texnologik jarayonlarni takomillashtirishlar innovatsiyalarni amaliy natijasi bo‘ladi va unga turli xil infratuzilmalarni shakllantirish evaziga

erishiladi [15], o'z o'rnida klasterni shakllantirish "tayyorlov bosqichi", "asosiy bosqich" va "yakuniy bosqich"dan iborat uchta algoritmgga ajratish mumkin [2].

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda agrosanoat kompleksini klasterlashtirish tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tashkiliy tuzilishi, ishlab chiqarish kuchlari va infratuzilmasi, tarixiy va ijtimoiy hayot sharoitlari prinsipial jihatdan farq qiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrosanoat klasterini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun yetakchi korxonalar, xom ashyo yetkazib beruvchilar, materiallar yetkazib beruvchilarning mavjudligi va birlashuvi muhim ahamiyatga ega. O'tkazilgan nazariy tahlil agrosanoat kompleksini klasterlashtirishning bir qator asosiy afzalliklarini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalar. Ma'lumki, eksport — bu bir mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni boshqa mamlakatlarga sotish jarayoni bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etadi. Uning ahamiyati iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratilishi, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini belgilashda ko'rinadi.

Eksportning asosiy mohiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

Valyuta tushumi: eksport mamlakatga valyuta tushumini ta'minlaydi, bu iqtisodiy o'sishga, turmush darajasini oshirishga va mamlakatning to'lov balansini mustahkamlashga yordam beradi:

Raqobatbardoshlik: eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, mahsulotlar va xizmatlarning sifatini oshirish, samaradorlikni rivojlantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga harakat qiladi, bu esa mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi;


Iqtisodiy diversifikatsiya: eksport turli xil mahsulot va xizmatlarni rivojlantirishga imkon beradi, bu mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini oshirib boradi va turli tarmoqlarning rivojlanishiga yordam beradi;

Xalqaro hamkorlik: eksport mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga, savdo va investitsiyalarni kengaytirishga, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi;

Texnologik rivojlanish: eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va joriy etishga harakat qiladi, bu esa tarmoqning ilmiy-texnik salohiyatini oshiradi va ishlab chiqarish samaradorligini yuqorilashtirishga yordam beradi.

Qayd etish lozimki, O'zbekiston eksportida 2020-yildan boshlab barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2020-yilda eksport hajmi 15,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 16,7 milliard dollarga, 2022-yilda 19,7 milliard dollarga va 2023-yilda 24,9 milliard dollarga yetdi. 2024-yilda O'zbekistonning eksport hajmi 2023-yilga nisbatan 8,4% ga oshib, 26,9 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 11,8 milliard dollar (78,2%), 2021-yilga nisbatan 10,2 milliard dollar (61,1%), 2022-yilga nisbatan 7,2 milliard dollar (36,5%) va 2023-yilga nisbatan 2 milliard dollar (8,4%)ga oshdi.

2024-yilda O'zbekistondan 2036,2 ming tonna meva va sabzavot eksporti amalga oshirilgan. Bu 2023-yilga nisbatan 15,8% ga yoki 278,5 ming tonnaga ko'p demakdir. Meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 5,8%ni tashkil etgan.




1-rasm. O'zbekiston bo'yicha 2024-yilda eksport qilingan (asosiy) meva-sabzavotlar hajmi (ming tonna)¹.

Qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani sababli eksport qilinayotgan mahsulotlarning sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, 2024-yilda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksporti 2175,2 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 109,8% o'sishga erishildi. Ushbu eksportning 1549,5 million AQSh dollari yoki 71,2%i meva va sabzavotlar eksporti hissasiga to'g'ri keladi.

Meva-sabzavotchilik va uzumchilik O'zbekiston qishloq xo'jaligida muhim o'rinni egallab bormoqda. Masalan, 2024-yilda O'zbekistondan 22036,2 ming tonna meva va sabzavot mahsulotlari eksport qilingan bo'lib, buning qiymati 1549,5 million AQSh dollarini tashkil etdi, 2023-yilga nisbatan qiymat jihatidan 31,2% ga va hajm jihatidan 15,8% ga (278,5 ming tonnaga) o'sishga erishildi.

¹Diagrammalar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.



2-rasm. O'zbekiston bo'yicha 2024-yilda eksport qilingan (asosiy) meva-sabzavotlar hajmini 2023-yilga nisbatan o'zgarishi (%).


2024-yilda O'zbekistonning meva-sabzavotlar eksportida uzum, shaftoli, mayiz va gilos kabi mahsulotlar yetakchi o'rinlarni egallaganini ko'rish mumkin. Bu O'zbekiston meva-sabzavot yetishtirish va eksport qilish sohasida oldingi yillarga nisbatan muvaffaqiyatga erishayotganidan dalolat beradi. Jadval va diagrammalarni tahlili, eksport qilingan meva-sabzavotlar qiymati bo'yicha:

Uzum eksporti 2024-yilda — 186,2 mln\$ bilan yetakchi o'rinni egallagan. Bu O'zbekistonda istiqbolda uzum yetishtirish va eksport qilishdagi kuchli salohiyati mavjudligini ko'rsatadi (3-rasm).

Mevalar eksportida shaftoli — 96,9 mln\$ bilan ikkinchi o'rinni egallagan. Shaftoli eksportining o'sishi O'zbekistonda shaftoli yetishtirish sohasining rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Mayiz eksporti — 79,5 mln\$ bilan uchinchi o'rinni egallagan. Mayiz eksporti O'zbekistonning meva-sabzavotlarni qayta ishlash sohasidagi muvaffaqiyatlarini tasdiqlaydi.

Gilos: 70,3 mln\$ bilan to'rtinchi o'rinni egallagan. Gilos eksportining o'sishi O'zbekistonda yangi turdagi meva-sabzavotlar yetishtirishga bo'lgan qiziqishning oshib borayotganligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonda meva-sabzavotlar yetishtirish va eksport qilish sohasining rivojlanish istiqbollarini tasdiqlaydi. O'rganishlar, meva-sabzavotchilik tarmog'i O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutishini va kelajakda yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekistonning meva-sabzavotlar eksportini yanada oshirish uchun quyidagi choralarni taqozo etadi:



3-rasm. O'zbekiston bo'yicha 2024-yilda eksport qilingan meva-sabzavotlar qiymati (mln \$).

meva-sabzavot yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish: zamonaviy sug'orish tizimlarini joriy etish, yangi navlarni yetishtirish, meva-sabzavotlarni saqlash va tashish uchun mukammal infratuzilmani yaratish;

eksport bozorlarini kengaytirish: yangi bozorlarga chiqish, eksport qilinadigan meva-sabzavotlar assortimentini kengaytirish, xalqaro standartlarga muvofiq meva-sabzavotlarni sertifikatlash;

meva-sabzavotlarni qayta ishlash sohasini rivojlantirish: qayta ishlangan meva-sabzavotlarni eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish.

Ushbu choralar O'zbekistonning meva-sabzavotlar eksportini yanada oshirish va uning iqtisodiyotida muhim o'rin tutishini ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekiston meva-sabzavot eksportidagi muvaffaqiyatlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. Biroq, meva-sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish taqozo etiladi:

Infratuzilma: O'zbekistonda meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga investitsiyalar kiritish.

Logistika: O'zbekistondan meva-sabzavotlarni eksport qilish uchun logistika tizimini takomillashtirish va transport xarajatlarini kamaytirish.

Marketing: O'zbekiston meva-sabzavotlarini xalqaro bozorlarda targ'ib qilish va marketing ishlarini kuchaytirish.

Tahlillar O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari eksportining kelajagi istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda. Hukumatning qo'llab-quvvatlashi va xususiy sektorning faol ishtiroki bilan O'zbekiston meva-sabzavot eksportini yanada rivojlantirish va mamlakatning xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlash mumkin.

Xulosa va takliflar.

1. Qishloq xo'jaligi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar soni bo'yicha turli manbalardagi ma'lumotlar o'rtasida farqlar kuzatiladi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda klaster (va protoklaster)lar umumiy soni 146 tani tashkil etgan¹. Vazirlik ma'lumotlarini o'rganish va tahlili natijalari [12], meva-sabzavotchilik klasterlari tashkil etilgan respublika tumanlaridagi mavjud meva-sabzavot ekinlari maydoni 306253 gektarni tashkil etib, uning 116024 gektari yoki 37,9 foizi klasterlarga birlashtirilganligini ko'rsatadi. Klasterlarga birlashtirilgan maydonlarni 30500 gektari yoki 26,3 foizi bevosita klasterlarni o'ziga, qolgan 85524 gektari esa klasterlarga birlashtirilgan 10033 ta meva-sabzavotchilik fermer xo'jaliklariga tegishli bo'lgan. Respublikamiz bo'yicha bitta meva-sabzavot klasteriga o'rtacha 789,3 gektar yer maydoni to'g'ri keladi (2020).

2. O'rganishlar, O'zbekistonda meva-sabzavot klasterlari "Mustaqil" (birinchi yo'nalish), "Tayyorlov-qayta ishlash" va "Aralash" shakllari (ikkinchi yo'nalish)da tashkil etilganini ko'rsatadi. Hozirgi davrda Respublikamizda 11 ta "Mustaqil", 16 ta "Aralash" va 120 ta "Tayyorlov-qayta ishlash" klasterlari faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, mustaqil klasterlar shaklida faoliyat yurituvchi meva-sabzavot klasterlari o'ziga ajratilgan yer maydonlarida: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, saralash va transportda tashish, sotish hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa obyektlar majmuasidan iborat infratuzilmaga ega bo'lib ularga ajratilgan umumiy yer maydoni 7309 gektarni tashkil etadi. Ular joylashgan hududlaridagi meva-sabzavot maydonlarini 15,1 %ni qamrab olgan. Mustaqil klasterlarini umumiy yer maydoni 7309 gektarni, meva-sabzavot klasterlari umumiy maydondagi salmog'i 24,0 % ni tashkil etadi. O'rtacha bitta klasterga 664,5 gektar yer maydoni to'g'ri keladi. Mustaqil meva-sabzavot klasterlari joylashgan hududlaridagi mavjud meva-sabzavot maydonlarini 6-45 foizni qamrab olingan. Mustaqil klasterlar tomonidan 2020-yilda 71 ming 888 tonna qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirilib, uning 26599 tonnasi yoki 37,0% ichki iste'molga, 28697 tonnasi yoki 39,9 foizi qayta ishlashga va 16592 tonnasi yoki 23,0 % eksportga yo'naltirilgan.

3. O'zbekiston meva-sabzavotchilik sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. 2024-yilda uzum, karam, sabzi va shaftoli eksporti bo'yicha respublikada yetakchi o'rinlarni egalladi. Eksport hajmida sezilarli o'sish kuzatildi, xususan, uzum eksporti 220% ga, sabzi 81,1% ga, gilos 70,3% ga, karam 68,8% ga, o'rik 53,0% ga oshdi. Bu, mamlakatda meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarning samarasidir.

4. Shu bilan birga, bizningcha, meva-sabzavotchilik sohasida yanada yuqori natijalarga erishish uchun bir qator muhim masalalarni hal etish zarur bo'ladi:

birinchidan, klaster tizimining samaradorligini oshirish va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. 2017-yildan 2024-yilgacha klasterlar soni 662 taga yetdi, bu sohaning rivojiga katta hissa qo'shdi. Kelgusida klasterlarning samaradorligini yanada oshirish, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ilmiy-texnik bazasini mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim;

ikkinchidan, meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish. Hozirgi davrda mamlakatda meva-sabzavotlarni

¹ Protoklasterlar, klasterning ba'zi xususiyatlariga ega bo'lgan va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlansa, to'liq klasterga aylanishi mumkin bo'lgan korxonalar birlashmasi

saqlash va qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sovuqxonalar, qayta ishlash korxonalari qurish, transport logistikasini takomillashtirish;

uchinchidan, meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Hozirgi kunda mamlakatda meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sovuqxonalar va qayta ishlash korxonalari qurish, transport logistikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega;

to'rtinchidan, meva-sabzavotlar eksportini kengaytirish va uning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Eksport bozorlarini o'rganish, eksport qilinyotgan mahsulotlar sifatini oshirish, transport logistikasini takomillashtirish, mahsulotlarni sertifikatlash va marketingni rivojlantirish eksportni kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi;

beshinchidan, aholini meva-sabzavotlar iste'molini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatya/References:

1. Малыш Е.В. (2014). Выявление инновационных агрокластеров // http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/31291/1/rrsick_2014_2_07.pdf.
2. Крупский Д.М. Кластеры, кластерное развитие, кластерная политика в Республике Беларусь: эволюция взглядов, реальная практика, тенденции и перспективы. ISSN 2078-5410. ЭКОНОМИКА И БАНКИ. 2016. № 2. - С. 87-96.
3. Yunusov X., Urdushev X., Eshankulov S. (2021). Agroindustrial clusters as an innovative mechanism Of economic development // "Development issues of innovative economy in the agricultural sector" International scientific-practical conference on March 25-26, 2021. 135-141 pp. <http://papers.conference.sbtsue.uz/index.php/DIIEAS/article/view/42>
4. Porter M. Clusters and The New Economics of Competition // Harvard business Review. 1998. November-December.
5. Khamrakul Urdushev, Majid Mavlyanov, Sirojiddin Eshankulov. (2021). About the state and development of fruit and vegetable clusters in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Year : 2021, Volume : 10, Issue:3 First page:(455) Last page:(463). Online ISSN: 2278-4853. Article DOI: 5958/2278-4853.2021.00157.9 <https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=10&issue=3&article=073>
6. Khamrakul Urdushev, Majid Mavlyanov, Sirojiddin Eshankulov. (2020). ISSUES OF CLUSTERING AGRICULTURE IN UZBEKISTAN. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 10, October 2020. Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01261.6. 1180-1192 pp. <https://saarj.com>. <https://saarj.com/wpcontent/uploads/ACADEMICIA-OCTOBER-2020-FULL-JOURNAL.pdf>
7. Urdushev Xamrakul, Mavlyanov Majid. (2024). Chorvachilikda klasterlashning ayrim masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Maxsus son, 2024 (2024 yil 18-19 aprel). <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2217/2311>
8. Урдушев, Х. (2023). АГРОСАНОАТ КЛАСТЕРЛАРИ ТИЗИМ СИФАТИДА. *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/2112>
9. Хамракул Урдушев, Маджид Мавлянов, Сирождиддин Эшанкулов. (2023). Кластерлар қишлоқ хўжалиги ва чорвачиликда хўжалик юритиш фаолиятини замонавий усуллари сифатида. Samarkand branch of Tashkent State Agrarian University Theoretical and practical foundations of introducing smart agriculture in Uzbekistan. Volume 4 |

- SamTSAU Conference | 2023. <https://cyberleninka.ru/article/n/klasterlar-ishlo-h-zhaligi-va-chorvachilikda-h-zhalikyuritish-faoliyatini-zamonaviy-usullari-sifatida>
10. Урдушев, Х., Мавлянов, М., & Эшанкулов, С. (2023). АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ ТАСНИФЛАШГА ЁНДОШУВЛАР, МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ ВА СИНФЛАНИШИ. *Nashrlar*, 1(2), 305–309. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/435>
 11. Эшанкулов С., Урдушев Х. Совершенствование структуры виноградников плодовоощного кластера с методами оптимизации / Региональные проблемы преобразования экономики: Ежемесячный научный журнал. № 3 (113), 2020. – С. 22–32. www.rppe.ru ISSN (Print) 1812-7096. ISSN (Online) 2411-0914
 12. Эшанкулов, С. (2021). Анализ развития плодовоощных кластеров. *Общество и инновации*, 2(10/S), 239–250. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp239-250>
 13. Урдушев Х., Эшанкулов С. (2020). Мева-сабзавотчилик кластерларни шакллантириш босқичлари ва ривожланиш истиқболлари. “Илм-фан ва инновацион ривожланиш” журнали. № 4., 2020. – Б. 89-101. ISSN 2181-9637 <https://mininnovation.uz/uz/news/zhurnal-nauka-i-innovatsionnoe-razvitie-vkljuchen-v-perechen-nauchnyh-izdanij-vysshej-attestatsionnoj-komissii>
 14. Портер М. Конкуренция. М.: Издательский дом «Вильямс», 2003. – С. 608.
 15. Мордовченков Н.В. (2015). Агрокластер как инновационный организационно-экономический механизм управления технологическими процессами в АПК. Азимут научных исследований: экономика и управление. 2015. № 1(10). – С. 89–94.
 16. Миролубова Т.В. (2013). Закономерности и факторы формирования и развития региональных кластеров: монография / Т.В. Миролубова, Т.В. Карлина, Т.Ю. Ковалева. Перм. гос. нац. иссл. ун-т. – Пермь, 2013. – С. 283.
 17. Маршалл А. Принципы экономической науки. – М.: Прогресс, 1993. – С. 309.
 18. Марков Л.С. (2015). Теоретико-методологические основы кластерного подхода. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2015. – С. 300.
 19. Марков Л.С. Диссертация на тему “Теоретико-методологические основы кластерного подхода в экономике”. <https://www.dissercat.com/content/teoretiko-metodologicheskie-osnovy-klaster-nogo-podkhoda-v-ekonomike>
 20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2024-yil yanvar-dekabr. Toshkent – 2025-y.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).